



XVIII asrda O'rta Osiyoga kelgan elchilarning qoraqalpoqlarning yashash hududlari haqidagi ma'lumotlari

Qoraqalpoq Davlat Universiteti 2-kurs magistranti Berdaq Qurbanboyev

Ilmiy rahbar: Qoraqalpoq Davlat Universiteti Tarix PhD A.Alimbetov

Annotatsiya: Mazkur maqola qoraqalpoq xalqi yashash hududlari, XVIII asrda O'rta Osiyoga Rossiyaning elchilik safarlari shuningdek bu vaqtlarda qoraqalpoqlarning ijtimoiy-siyosiy ahvoli haqida.

Kalit so'zlar: Diplomatik munosabatlar, Pyotr I, Ufa, Qozon, Xiva xonligi, Buxoro xonligi, Rossiya elchilari

Dmitriy Vershinin elchiligi (1721-yili). XVIII asrda Rossiya imperiyasi va O'rta Osiyo xonliklari orasidagi siyosiy diplomatik munosabatlar jadallashadi. Ayniqsa, Rossiya Pyotr I davrida Markaziy Osiyo haqida ma'lumotlar jamlashga, uning tabiiy boyliklarini o'zlashtirishga qiziqish kuchayadi. Bu davrda Rossiya imperiyasi O'rta Osiyo xonliklari jo'rligida, qoraqalpoqlarni ham o'zlar ta'sir davrasiga kiritishga harakat qiladi. Qoraqalpoqlar va Rossiya orasidagi diplomatik munosabatlar qoraqalpoq xoni Eshmuhammad hukimronligi davrida bir qancha jadallashadi.

Rossiya imperatori Pyotr I bilan qoraqalpoq xoni Eshmuhammad orasidagi diplomatik aloqalar Rossiya arxiv hujjatlarida saqlanib qolgan. Arxivist A. M. Birze tomonidan o'sha davrga tegishli «Qoraqalpoqlar suvvarasi» bo'yicha arxiv manbalari to'plangan.²⁴

U yerda rus elchisi D.Vershininning Rossiya va qoraqalpoqlar o'rasidagi diplomatik munosabatleri haqidagi tafsilotlar berilgan.²⁵

Arxiv hujjatlarinde yozilishicha, Ufa shahrida 1721-yil 17-noyabrda yozilgan yorliqlik bo'yicha qoraqalpoqlar orasiga rus dvoryani D.Vershinin, tilmocho Gerasim Ovsyanikov,

²⁴ Turganov B.Q., Qoraqalpoqstan tariyxidan derekler. (XVII-XIX asirlardagi Rossiyalı elshi ham sayaxatshılardıń maǵlıwmatları tiykarında). «Tafakkur-bo'stoni» baspası. Tashkent - 2019. 35-бет.

²⁵ Юсупов О.Ж. Жанибек Батır, Маман Батır, Мурад Шайх Азийз Баба, Қоразбек бий Аталқ. -Но'кис. Қарақалпақстан, 1993. 28-бет.



boshqurt Toxchu Axmetov, A.P.Soltikovlar kelgan. Rossiya elchisi Dmitriy Veshinin bilan Eshmuhammadxon Sirdaryo bo'yidagi qoraqalpoqlar bilan Rossiya davlati munosabatlari masalasi, ayniqsa asirlarni o'zaro almashtirish to'g'risida so'zlashuvlar olib boradi. 1722- yil 28-aprel va 22-avgustda tuzilgan bayonnomada D. Vershinin missiyasi a'zolari Ufa va Qozon shaharlariga kelganligi yoritilgan. Ular jo'rligida Jonibek botir boshchiligidagi qoraqalpoq elchilari da kelgan. Elchilar tarkibida Xojabay botir, Qolmuxammed botir, Temirbek botir, Do'sttmuxammed va bitta qo'shchisi bo'lgan. Qoraqalpoq elchisi Jonibek botir Rossiya imperatori Pyotr I qabulida bo'lgan.²⁶

1723-yil jung'arlarning qozoq va qoraqalpoqlarga tajovuzkorlik yurishlaridan song Rossiya imperiyasi va qoraqalpoqlar orasidagi elchilik aloqalari biroz vaqt to'xtab qoladi.

Florio Beneveni elchiligi (1721-1725-yillar). Rossiya imperatori Pyotr I (1682-1725-yillar) davrida sharqni egallash, uni harbiy kuch va vosita yordamida itoat qildirish harakati biroz kuchayadi. Pyotr I Aleksandr Bekovich CHERkasskiyni qurollangan armiya bilan Xivani Rossiya tarkibiga olish haqida so'zlashuvlar olib borish uchun yuboriladi. Asosida bu elchilik emas, u xonni siyosiy qaramlikka olib, Xiva xonligin kuch bilan itoat qildirishga qaratilgan harakat edilar. Biroq Xiva xoni SHERg'azixon (1715-1728-yillar) Rossiya podshosining asosiy niyatini o'zlar vaqtida anglab yetadi va Bekovich-CHERkasskiy ekspeditsiyasini yo'q qiladi. Shundan so'ng Rossiya Xiva va Buxoro xonliklarini bosib olish payti kelmaganligini, osonlikcha bosib olish mumkin emasligin tushinadi hamda O'rta Osiyo haqida ko'proq ma'lumotlar to'play boshlaydi.

Buxoro xonligi Xivadagi Bekovich-CHERkasskiy voqeasidan song Pyotr I O'rta Osiyoga armiya yuborishi mumkin degan xavfdan Abilfayzxon 1717-yili Rossiyaga elchi jo'natadi, u do'stlik va savdo-sotiq aloqalarni o'rnatish tilagini ifoda etadi.

1717-yili oktyabrda Pyotr I Senatda Buxoro xonligi elchisini qabul qiladi, elchi Buxoro xonining Rossiya bilan tinchlik va savdo-sotiq ishlarini rivojlantirish haqidagi tilaklarini ifoda etadi. Pyotr I farmoni bilan 1718-yil 5-iyulda Eron davlati va Buxoro xonligiga

²⁶ Юсупов О.Ж. Жанибек Батır, Маман Батır, Мурад Шайх Азийз Баба, Қоразбек бий Аталіқ. -Но'кис. Қарақалпақстан, 1993. 29-бет.



elchilikka Florio Beneveni tayyorlanadi. U dastlab suv yo'llari qirg'oqlari Moskvadan Qashqar, SHemaxa shahriga, song 1721-yilda Eron markazi Tehronga boradi. 1725-yil 8-aprelda F. Beneveni Buxoroga keladi. Pyotr I tomonidan tasdiqlangan risolada elchiga bir qancha yashirin topshiriqlar beriladi. U Buxoroda bo'lgan davrida yashirin ma'lumotlarni maxfiy xatlarda yozib, ularni voqeanavis va savdogarlar yordamida Rossiyaga yo'llab turadi. Maxfiy xatlar yunon savdogari, tilmoch Ivan Damentev, boshqurt mo'llalaridan Maxsud Yunusovlar yetkazib turishgan. Tilmoch Ivan Damentev Buxorodagi F.Benevenining nomasini olib Xorazm qirg'oqlariga yo'lga chiqqanda yo'lini qoraqalpoqlar ko'ngilli qo'shinlari to'sip, boji solig'i olgan.²⁷

Xiva xoni SHerg'ozixon (1716-1728-y.y.) bilan orollilar orasida tez-tez urush bo'lib turadi. Orollilar Sherg'ozixonni taxttan tushirib, o'rniga Musa xonning o'n to'rt yashar bolasi SHax Temir Sultonni taxtga o'tqazish niyatida bo'lgan. Bu nizoda Orol bo'yindagi Xiva xoniligiga zid har qanday harakat Buxoroxonlari tomonidan qo'llab - quvvatlangan. Buxoroga kelgan qoraqalpoq biyi F. Beneveniga qoraqalpoqlar yurtiga Rossiyadan elchilar kelganligi haqida aytadi.²⁸

Florio Beneveni tomonidan to'plangan ma'lumotlar Rossiya imperiyasining Sharqni egallash siyosatida muhim bo'lgan.

Mirza Tevkelev elchilik tashrifi (1731-1733-yillar). Rossiya imperiyasi nomidan 1730 - yili sentyabrda elchi M. Tevkelev qozoq dalasi va Orol dengizi bo'ylariga borish haqida farmoyish oladi. U qozoq elchilari Qulimbet, Seytqul hamrohligida elchilik tashrifini amalga oshirgani yoritilgan. Rossiya imperiyasi tomonidan berilgan yo'riqnomaga yarasha, Mirzo Tevkelev kichik juz qozoq xoni Abulxayirxon, sultonlar, oqsoqol va biylarning Rossiya fuqaroligini qabul qilish haqidagi qasamini qabul qilishi zurrur edilar. Ushbu qasami qabul qilish ahli musulmonlarning muqaddas kitobi Quroni - karimni ushlab amalga oshirishi nazarda tutiladi. Elchi M. Tevkelev tashrifida huquq va yengilliklarga ega bo'lib,

²⁷ Лунин Б.В. История Узбекистана в источниках. Известия путешественников, географов и ученых XVI первой половины XIX в. -Ташкент. Фан, 1988. – С. 82-88

²⁸ Посланник Петра I на Восток. Посольство Флоридо Беневени в Персию и Бухару в 1718-1725 годах. -Москва, 1986. – С. 68.



unga Orol bo'yindagi qoraqalpoqlarni ham Rossiya fuqarosi bo'lishga ko'ndirish vazifasi yuklatilgan edi.

1731-yili qishda Abulxayirxon va elchi M. Tevkelev Orol bo'yi va Sirdaryo bo'ylarindagi qozoq va qoraqalpoqlar orasida bo'lgan.

M. Tevkelev ikkita yillik elchilik tashrifi davomida ko'rgan voqealarni kundalikka yozib borgan. Qozog'istonlik muarrixlar N. G. Apollova, V. YA. Vasin badiiy asarlarida elchi M. Tevkelevning kundaligida Orol bo'yidagi qoraqalpoqlar orasidagi tashrifi haqidagi ma'lumotlarni ham yoritgan. U yerda qoraqalpoqlarning o'sha davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga aloqador boy materiallar jo'rligida, qoraqalpoq xoni G'oyib xon va Murat Shohiyning xatlaridan parchalarkeltirilgan.²⁹

Dmitriy Gladishev va geodezist Ivan Muravinlarning elchilik tashrifi (1740-1741-yillar). Ular 1740-yili Rossiya mamlakatlik ishga layoqatli va muarrix olim V.N.Zangishchev faolligi bilan Xiva xonligi va Sirdaryoning pastki oqimidagi shahar va qishloqlar haqida ma'lumot to'plash uchun yuborilgan.

D. Gladishev va I. Muravin ma'lumotlari XVIII asrdagi qoraqalpoq va orollilarning tarixini o'rganishda katta ahamiyatga ega manba hisoblanadi. Ular Sirdaryo va Orol dengizi atroflari, Xiva xonligidagi Xiva, Xojeli, Qo'ng'iroq, Xonqa, SHavot shaharlari, shu jumladan, o'zbek, qozoq, qoraqalpoq xalqlari haqida ma'lumotlar beradi. Rossiya imperatori farmoni bo'yicha o'sha yili 1739- yili 20 -avgustda xondan ruxsat olish va qurilish joyini ko'zlash uchun mas'ul xodimlarni jo'natadi. Ushbu vazifani bajarish uchun Abulxayirxonga D. Gladishev, geodezis I. Muravin va muhandis Nazimov bir nechta kazaklarni qo'shib jo'natadi.

D. Gladishevning Xiva xonligi va kichik juz qozoq xonligi haqida 37 punktdan iborat ko'rsatmasi bo'lib, ushbu matnda qoraqalpoqlar va orol o'zbeklariga tegishli ma'lumotlar keltiriladi.

²⁹ Казахско-русские отношения в XVI-XVIII веках. – Алма-Ата: АН Каз ССР, 1961. – С. 48-86.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ivanov P.P. Novie dannie o karakalpakax.// Sovetskoe vostokovedenie. T. III . M.-L., 1945.
2. Kamalov S.K. Karakalpaki v XVIII-XIX vekax (k istoriy vzaimootnosheniy s Rossiey i sredneaziatskimi xanstvami), Tashkent, «FAN» 1968.
3. Kamalov S.K. XVIII asirdegi qaraqalpaq-rus qatnasıqları. «Qaraqalpaqstan», No'kis, 1966.
4. Kamalov S.K. Qaraqalpaqlardıń xalıq bolıp qalıpleseyi hám onıń mámleketliginiń tariyxınan. No'kis, 2001.
5. Kamalov S. K., Ubbiniyazov J. U., Koshanov A. K. Iz istoriy vzaimootnosheniy karakalpakov s drugimi narodami Sredniy Azii i Kazaxstana v XVII-nachale XX vv. T. 1988.